



YOSHLARNING YURAGI “DUK – DUK” DEB EMAS, “YURT-YURT “ DEB URMOG`I LOZIM

Xasanova Gulsanam Jahongir Qizi

O`zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Filologiya fakultet

E-mail: gulsanamhasanova@283gmail.com

Telefon raqam: +998 93 293 38 63

Annotatsiya. Yoshlar ertangi kunimizning egalari, kelajak poydevorlaridir. Ularning erishayotgan yutuqlari yurtimizni dunyo miqyosidagi o`rnini yuksaklarga ko`taradi. Vatan- bu tug`ilganimizda nafas qarz olgan muqaddas maskanimiz. Shu nafas qarzini unga bo`lgan sevgimiz bilan o`tashimiz lozim. Vatan uchun yashab unga g`olibliklar keltirishimiz , bizning ona yurt uchun qilgan eng oliy faoliyatimizdir. Yoshlarning yuragi “ duk-duk” deb emas, “yurt-yurt” deb urishi darkor. Qachonki, bizning diyorumizda yoshlarning yuragi yurtga bo`lgan sevgisi sabab ursa, uning rivoji uchun hissa qo`shishga intilsa, “O`zbekiston” nomi fazolarga oltin harflarda bitiladi.

Kalit so`zlar. Yurt sevgisi, taraqqiyot strategiyasi, kelajak bunyodkori, yurt madhi, yoshlar parvozi.

Kirish qism

Bugun yurtimizda tinchlik farovonlik hukm surmoqda. Bu ne`matlarning qadr-qimmatini bebahodir. Bu tinchlik, taqqiyot, va farovonlik, albatta, o`z-o`zidan bo`lmagan.

Bu avallambor, Alloh taoloning bizga bergan cheksiz inoyati bo`lsa, ikkinchidan, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir. Biroq , hozirgi davrda bir narsani alohida ta`kidlash kerak-ki, bizning tinchlik va farovonligimizga hasad ko`zi bilan boqib, o`z g`arazli , shaxsiy manfaatlari yo`lida , turli vosita va usullardan foydalanib, buyuk ne`mat bo`lmish tinchligimizga raxna soluvchi kuchlar ham yo`q emas. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida yosh avlod ong-u shuuriga tahdid soluvchi omillar, eng avvalo biz uchun yot, buzg`unchi g`oyalar orqali nosog`lom qarashlarni tarqatishga urinishlar ham mavjud. Xo`sh biz bunga qarshi qanday kurashamiz? Albatta milliy g`oya bilan!



Asosiy qism

Yigit –qizlarimiz tarbiyasi bo`lib ulg`ayishi, kasb-hunar egallashi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo`lida o`z bilim va shijoatini safarbar qilib, o`zini shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalbdan his qilgan holda o`zining jamiyatdagi vazifalarini to`la ado etishi kerak. Zero, vatanga xizmat shu yurt farzandiman degan har bir o`g`il –qiz uchun eng oliy saodatdir.

Mamlakatimiz kelajagi bo`lmish yoshlarimizni har tomonlam yetuk , bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o`ziga xos tarzda , zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta`lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta`limda ilg`or kadr bo`lib yetishishini ta`minlamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “ Yangi O`zbekistonni, albatta , yoshlar bilan birga quramiz. Yoshlarga oid davlat siyosatida tub burulish yili quramiz”.

Axir yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo`lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64% ini yoshlar , ya`ni 30 yoshgacha bo`lganlar tashkil etadi. Albatta, bu davlatimiz zimmasiga ulkan ma`suliyat yuklashini ko`z oldimizga keltirsak, juda katta e`tibor, g`amxo`rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko`rsatiladigan e`tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarni ham beradi. Shu bois ham yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e`tirof etib kelingan. Sharq uyg`onish davrida ham jadidlar faoliyatida ham jamiyatning yangilanishida yoshlarning o`rni beqiyos bo`lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo`naltirib ba qo`llab –quvvatlab turishni talab etadi... bu esa davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlarini yo`lida erkin ijtimoiylashuvi va o`zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo`llab –quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Yoshlarimiz qozoniyotgan yutuqlar, erishayotgan birinchiliklar, hammasi yurtimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning mevasidir. Yurt sharafi, mamlakat nomi uchun intilish, uning bayrog`ini arenaning eng yuksaklarida hilpiratish biz yurtimiz dilbandlarining asosiy va bosh vazifasidir.

Xulosa

Ajdodlarimizning bizga qoldirgan meroslari, pok nomlariga munosib farzandlar bo`lishimiz, patriotlik hissiga to`la qalb bilan yurtimizni sevishimiz va bu sevgini butun dunyolarga isbot etishimiz zarur. Intilganga tole yor deganlaridek, hayrli har ishimizda bizga dastak berayotgan ona O`zbekistonimizning xizmatlarini to`la to`kis



ado etishimiz va albatta uning kelajagi haqida qayg`urishimiz lozim. Vatanga bo`lgan muhabbat qanchalik yuqori bo`lsa, Yaratgan Egam ham aynan qalbida vatan sevgisi kuchli bo`lgan insonlarning yo`lini yorug` qiladi va hayotini nurlarga to`ldiradi. Biz yoshlar kelajakdagi men egallamoqchi bo`lgan kasbimning maoshi zo`r bo`lsa, vila sotib olaman, travel qilaman deb emas, yurtimizdagi imkoniyati cheklanganlarga hayriya qilaman, uning obodonchiligiga hissa qo`shaman deb harakat qilishimiz kerak. Kitob o`qib vatanim yoshlariga bilim beraman, tibbiyot o`rganib, xalqimizning og`irini yengil qilaman, sport bilan shug`illanib, madhiyasini olam aro baland yangrataman deya faqat va faqat yurt uchun samarali bo`lgan yo`llar haqida o`ylashimiz shart. Vatan bizni shuning uchun kamolga yetkazdi. Behisob shrt-sharoitlar yaratib berdi. Uning oldida qarzdormiz. Bu ulkan qarzimizni, oddiygina muhabbat bilan o`tab qo`yishimiz kerak-ku ahir. Qachon vatan dunyoda eng buyuk bo`ladi? Qachonki, butun dunyoda o`sha vatnning nomi tilga olinganda, “Yoshlarining ko`zi chaqnagan, qalbida olovi bor” – deya gap boshlansa.... Ana shu lahzalardagina vatan eng buyugi va tengsizi bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E-mail:payariq@samarkand.uz 04.11.2023
2. “Xalq so`zi” gazetasi 16- bet. 2023 17-iyul 7 –son
3. Народный слова 9 бетб 2020 йил
4. Prezidentimiz nutqi, 2020/ 8-dekabr Konstitutsiya
5. Yoshlar ittifoqi, uzyoshlar.education’
6. Google finder, yuz.uz